

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL  
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
<b>Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich</b>	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES .....	20
<b>Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li</b>	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
<b>Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi</b>	



# O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH

## Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi

TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi 1-kurs tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0008-2929-554X

Email: [abdumannobovagulnoz7@gmail.com](mailto:abdumannobovagulnoz7@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini yanada takomillashtirish va xorij tajribasidan foydalanish, budjet-soliq siyosatini rivojlantirish orqali yashil o‘tish jarayonlarini innovatsion tarzda takomillashtirish, barqaror rivojlanishdagi asosiy muammolar va yechimlar o‘rganilgan. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tishda budjet-soliq siyosatining ahamiyati va atrof-muhitni yaxshilash uchun amalga oshiriladigan innovatsion yechimlar haqida qisqacha fikr-mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, soliq, karbon soliqlar, budjet-soliq, atrof-muhit, energiya, resurslar, samaradorlik.

**Abstract:** This article aims to further improve the country’s transition to a green economy and to utilize foreign experience. The article examines how to innovatively enhance green transition processes through the development of budget and tax policy, and explores the main challenges and solutions in sustainable development. A brief overview is provided on the importance of fiscal policy in the country’s transition to a green economy and the innovative solutions being implemented to improve the environment.

**Keywords:** green economy, tax, carbon taxes, fiscal policy, environment, energy, resources, efficiency.

**Аннотация:** Цель данной статьи — содействовать ускорению перехода страны к «зеленой» экономике и использовать зарубежный опыт. В статье рассматриваются инновационные способы ускорения процессов «зеленого» перехода посредством развития фискально-налоговой политики, а также анализируются основные вызовы и решения в сфере устойчивого развития. Дается краткий обзор важности фискальной политики в переходе страны к «зеленой» экономике и инновационных решений, реализуемых для улучшения состояния окружающей среды.

**Ключевые слова:** «зеленая» экономика, налоги, углеродные налоги, фискальная политика, окружающая среда, энергетика, ресурсы, эффективность.

## KIRISH

Hozirgi kunda global miqyosda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, xususan, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayib borishi davlatlardan samarali va barqaror siyosiy yechimlarni talab etmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda iqtisodiy instrumentlar, ayniqsa, yashil soliqqa tortish tizimi (green taxation) muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil soliqlar atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlarini iqtisodiy jihatdan cheklash, ekologik toza texnologiyalarni rag‘batlantirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shu tufayli ham O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishni amalga oshirish maqsadida turli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Uglerod birliklari ixtiyoriy bozori loyihalari bo‘yicha takliflarning o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi va amalga oshirilishi, verifikatsiyalangan uglerod birliklarining realizatsiya qilinishi hamda tushumlarning Davlat budjetiga yo‘naltirilishini muvofiqlashtirish zarur [1]. Shuningdek, mamlakatda energiya va resurs samaradorligini oshirish hamda kam chiqindili mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektori o‘rtasida integratsiyani ta‘minlash kabi vazifalar belgilab o‘tilgan [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Atrof-muhitga solinadigan soliq aniq va salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan nimanidir jismoniy birlik yoki uning o‘rnini bosuvchi ko‘rsatkich asosida hisoblanadi. Ular to‘rt turga bo‘linadi: energiya soliqlari (transport yoqilg‘isi ham kiradi), transport soliqlari (transport yoqilg‘isi bundan mustasno), ifloslanish soliqlari va resurs soliqlari [3].



Soliq tizimi mamlakatda yashil iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda samarali bo'lishi uchun uning soliq bazasi ifloslanish manbaiga iloji boricha yaqin bo'lishi kerak [4]. Odatda, soliq bazasi ma'lum bir ifloslantiruvchi moddaga (masalan, oltinugurt dioksidi, azot oksidlari) yoki uning o'rmini bosuvchi ko'rsatkichga (masalan, yoqilg'i iste'moli) taalluqli bo'ladi. Energiya soliqlari eng katta ulushni tashkil etadi, chunki ular transport uchun energiya mahsulotlarini hamda uglerod dioksidi (CO<sub>2</sub>) va boshqa issiqxona gazlari chiqindilari chiqishini o'z ichiga olgan havo ifloslanishining sezilarli qismini qamrab oladi.

Soliq solish milliy hukumatlarga fuqarolarning xatti-harakatlarini boshqarish uchun eng kuchli vositani taqdim etadi. Ishlab chiqarish, mehnat va kapitalga solinadigan ma'lum soliqlardan tashqari, atrof-muhit va ekologik soliqlar ham mavjud. Yevropa Ittifoqi qo'llagan ta'rif atrof-muhit bilan bog'liqlikni juda aniq ko'rsatadi, ya'ni: "Soliq bazasi atrof-muhitga isbotlangan, aniq salbiy ta'sir etadigan nimanidir fizik birlik (yoki uning o'rmini bosuvchi ko'rsatkich) sifatida oladigan va aniqlangan soliq yashil soliq tizimi hisoblanadi" [5] (Eurostat, 2019). Ushbu ta'rif soliqning ta'siriga urg'u beradi, ya'ni soliq atrof-muhitga zararli mahsulotlar narxini oshirishi yoki ifloslantiruvchi faoliyatni qimmatroq qilishi tufayli atrof-muhit solig'iga aylanadi. Shunday qilib, soliqning ta'siri nisbiy narxlar va faoliyat darajasiga bo'lgan ta'siridan kelib chiqadi.

Atrof-muhit soliqlari atrof-muhit bilan bog'liq soliq tushumlaridir. Bunday soliqlarning xususiyatlari daromad, soliq bazasi, soliq stavkalari va imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagi ekologik sohalarga qo'llaniladi: energiya mahsulotlari (shu jumladan, transport vositalari yoqilg'isi), avtotransport vositalari va transport xizmatlari, havo va suvga o'lchangan yoki hisoblangan emissiyalar, ozon qatlamini yemiruvchi moddalar, suv ifloslanishining ayrim nuqtadan tashqari manbalari, chiqindilarni boshqarish va shovqin, shuningdek, suv, yer, tuproq, o'rmonlar, biologik xilma-xillik, yovvoyi tabiat va baliq zaxiralari boshqarish. Bu ko'rsatkich YaIM va soliq tushumlarining foizi sifatida o'lchanadi [6].

Yevropa Yashil Bitimi doirasida Yevropa Ittifoqi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va toza atrof-muhitni ta'minlash maqsadida 2030-yilga qadar issiqxona gazlari chiqindilarini 55 % ga kamaytirish va 2050-yilga borib iqlim neytral qit'aga aylanish bo'yicha ambitsiyali maqsadlarni belgiladi [7].

Bundan tashqari, yashil soliq solish tushunchasi yashil soliq islohotlari tushunchasi bilan ajralmas bog'liqdir. Ushbu soliq islohotlari turiga ekologik soliqlarni joriy etish kiradi, bu orqali kompaniyalarning (daromad va kapital) an'anaviy soliqlarining, mehnat daromadlariga soliqlarning va ijtimoiy sug'urta tizimlariga badallarning katta qismini almashtirish hamda ishsizlik darajasini kamaytirish maqsad qilinadi [8].

Barqaror o'sishga asoslangan strategiya bo'lgan yashil rivojlanish iqtisodiy kengayish va ijtimoiy farovonlikni tabiiy resurslarni saqlash bilan muvozanatlashtirishga intiladi [9]. Olimlar siyosiy ishonchning yuqori darajasi va tashqi siyosiy samaradorlik, ya'ni fuqarolarning siyosatda ovozga ega ekanliklarini qanday his qilishlari, karbon soliqlarini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqladilar [10].

Xususan, Ismoilov M.Q. va boshq. 2024-yilda hududlarning soliq potensialini oshirishda budjet-soliq siyosati choralarini xorijiy tajriba asosida tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlarda hududiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun mahalliy soliqlar bazasini kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali soliqlar tushumini oshirish masalalari yoritilgan [11].

N. Ashurovaning "Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi (2018) barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish va rivojlantirish masalalari tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan [12].

Yashil soliqlar ekologiyaga salbiy ta'sirlarni kamaytirishning samarali usuli bo'lishi mumkin. Shuningdek, ular atrof-muhitni muhofaza qilish va toza energiyani rivojlantirish uchun ishlatiladigan asosiy mablag'larni shakllantiradi. Biroq, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qo'yiladigan soliqlar samarali va adolatli bo'lishi uchun ularni puxta o'rganish, rejalashtirish va ishlab chiqish muhimdir. Yashil soliqlar atrof-muhitni ifloslantiruvchi yoki tabiiy resurslarni kamaytiruvchi faoliyatlar xarajatini oshirish orqali ekologik zararlarni kamaytirishga qaratilgan. Bu korxonalar va fuqarolarni bunday faoliyatlardan voz kechishga undaydi hamda ularni yanada barqaror va ekologik toza usullardan foydalanishga rag'batlantiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot "O'zbekistonda yashil soliqqa tortish tizimini muammolar, yechim va imkoniyatlar asosida joriy etish" mavzusini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning metodologik asosini ekologik iqtisodiyot nazariyalari, barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda xalqaro "yashil iqtisodiyot" va "yashil moliya" tamoyillari tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqotda OECD, Jahon banki va Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan ekologik soliq siyosati bo'yicha tavsiyalar ham nazariy asos sifatida o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usuli orqali yashil soliqqa tortish tizimining iqtisodiy, ekologik va fiskal jihatlari alohida o'rganildi hamda ular o'zaro bog'liqlikda umumlashtirildi. Induksiya va deduksiya usullari yordamida xalqaro tajribalar asosida umumiy qonuniyatlar

aniqlanib, O‘zbekiston sharoitiga mos amaliy xulosalar shakllantirildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida rivojlangan mamlakatlar (Yevropa Ittifoqi davlatlari, Skandinaviya mamlakatlari va OECD a‘zolari)dagi yashil soliqqa tortish amaliyoti O‘zbekistonning amaldagi soliq tizimi bilan solishtirildi. Bu yondashuv mavjud farqlar, institutsional cheklovlar va joriy etishdagi muammolarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda statistik tahlil usuli ham qo‘llanilib, O‘zbekiston Respublikasida ekologik to‘lovlar, tabiiy resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari, sanoat chiqindilari va atrof-muhitga zarar darajasi bo‘yicha ma‘lumotlar o‘rganildi. Ushbu ma‘lumotlar asosida yashil soliqqa tortish tizimini joriy etishning fiskal samaradorligi va ekologik ta‘siri baholandi.

Bundan tashqari, sistemali yondashuv asosida yashil soliqqa tortish tizimi iqtisodiyotning barcha sektorlariga ta‘sir qiluvchi kompleks mexanizm sifatida ko‘rib chiqildi. Bu yondashuv orqali soliq siyosati, ekologik tartibga solish, investitsiya oqimlari va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar tahlil qilindi.

Tadqiqotda modellashtirish va prognozlash usullari ham qo‘llanilib, yashil soliqlar joriy etilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan fiskal tushumlar, korxonalar xarajatlari va ekologik samaradorlikning o‘zgarish dinamikasi baholandi. Bu orqali turli ssenariylar asosida (past, o‘rta va yuqori soliq stavkalari) iqtisodiy natijalar prognoz qilindi.

Shuningdek, me‘yoriy-huquqiy tahlil usuli yordamida O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, ekologik qonunchiligi va strategik rivojlanish hujjatlari o‘rganildi hamda yashil soliqqa tortish tizimini joriy etish uchun huquqiy asoslar baholandi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar yashil soliqqa tortish tizimini O‘zbekiston sharoitida joriy etishning muammolari, imkoniyatlari va istiqbollarini kompleks tahlil qilish, shuningdek, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi samarali siyosat, texnologik yutuqlar, xulq-atvor o‘zgarishlari hamda resurslarni oqilona boshqarish kabi o‘zaro bog‘liq tashabbuslarni qamrab oladi. Ushbu yondashuvlarning asosiy maqsadi ekotizimlar va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, yashil soliqqa tortish mexanizmlari ekologik va iqtisodiy maqsadlarni uyg‘unlashtiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Xususan, ilmiy tadqiqotlarda yashil soliq islohotlari energiya savdo balansini yaxshilash, energiya zichligini pasaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega ekanligi ta‘kidlangan (1-jadval) [13].

1-jadval  
Yashil iqtisodiyotga o‘tishda soliqqa tortish tuzilmasi<sup>®</sup>

Yashil iqtisodiyotga soliqqa tortish arxitekturası				
Turlari	Ishlash jarayoni	Zaruriyligi	Kelajagi	Afzalliklari
Transport vositalari chiqindisi solig‘i	Zararli faoliyatlarni aniqlaydi	Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish	Karbon chegaraviy moslashuvlar	Emissiyalarni kamaytirish
Chiqindilar solig‘i	Soliqlarni joriy qiladi	Qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish	Raqamli iqtisodiyotni soliqqa tortish	Xulq-atvorni o‘zgartirish
Energiya solig‘i	Rag‘batlar yaratadi	Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish	Dinamik soliq stavkalari	Iqtisodiy samaradorlik
Karbon solig‘i	Daromad keltiradi	Tabiiy resurslarni asrash	Blokcheyn bilan integratsiya	Daromad yaratish
Plastik solig‘i	Samaradorlikni oshiradi	Barqaror amaliyotlarni rag‘batlantirish	Karbonni ushlash texnologiyalari uchun rag‘batlar	Innovatsiyani rag‘batlantirish
Havo ifloslanishi solig‘i	Ehtiyotkorlik bilan loyihalashtirishni talab qiladi	Ekologik loyihalar uchun daromad yaratish	Qayta tiklanuvchi energiya kreditlarining rivojlanishi	Ish o‘rinlari yaratish
Suv ifloslanishi solig‘i		Global iqlim maqsadlariga moslashish	Xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvlari	Jamoat salomatligini yaxshilash




Jadval ma'lumotlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil soliqlar, jumladan karbon soliqlari, ekologik samaradorlikni oshirish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Bangladesh tajribalariga bag'ishlangan ko'plab empirik tadqiqotlar to'g'ri ishlab chiqilgan soliq siyosati iqtisodiy o'sishni saqlab qolgan holda ekologik barqarorlikni ham ta'minlashi mumkinligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, yashil soliqlarning samarasiz yoki noto'g'ri loyihalashtirilishi ayrim hollarda iqtisodiy yukning ortishi yoki ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Yashil soliqlar energiya soliqlari, karbon soliqlari, transport soliqlari va chiqindi soliqlari kabi asosiy turlarga bo'linadi. Ularning asosiy vazifasi ekologik zararlarni iqtisodiy xarajatlarga aylantirish, ya'ni "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilini amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Tadqiqotlar natijalari ayniqsa karbon va energiya soliqlari issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishda eng samarali iqtisodiy instrumentlardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababli yashil soliqlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish va iqtisodiyotni ekologik jihatdan barqaror rivojlantirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Xalqaro tajriba ham ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Jumladan, Yevropa Ittifoqida karbon chiqindilarini qisqartirish maqsadida Emissiyalar Savdosi Tizimi (EU ETS) va karbon soliqlari keng qo'llaniladi. Shvetsiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, karbon solig'i joriy etilgandan keyin atmosferaga chiqariladigan zararli chiqindilar sezilarli darajada kamaygan bo'lsa-da, iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlanib qolgan. Bu esa yashil soliqqa tortish mexanizmlarining ekologik va iqtisodiy maqsadlarga bir vaqtning o'zida erishish imkoniyatini namoyon etadi.

Germaniya va Daniyada yashil soliqlar va subsidiyalar orqali quyosh va shamol energiyasi keskin rivojlandi. Soliqlar fosil yoqilg'ini qimmatlashtirib, toza energiyani raqobatbardosh qiladi. Fransiya va Niderlandiyada transport soliqlari (yoqilg'i va avtomobil emissiyasi uchun) havoning ifloslanishini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada shaharlarda havo sifati yaxshilanmoqda. Finlyandiya va Avstriyada energiya va resurs soliqlari orqali suv, o'rmon va foydali qazilmalardan samarali foydalanish rag'batlantiriladi. Yevropada kompaniyalar yashil soliqlar sabab ishlab chiqarishda ekologik texnologiyalarga o'tmoqda. Masalan, CO<sub>2</sub> chiqindisi yuqori bo'lgan sanoat korxonalarini energiya samaradorligini oshirishga majbur bo'lmoqda (1-rasm).



1-rasm. Yashil iqtisodiyotga o'tishda soliqlarning asosiy ahamiyati<sup>1</sup>

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar asosida ekologik soliqlarni uchta asosiy kategoriyaga ajratish mumkin. Ular energiya, transport va ifloslanish (pollution) soliqlaridir. Energiya soliqlari energiya iste'moli va yoqilg'i bilan bog'liq bo'lib, unda davlat energiyadan ortiqcha foydalanishni kamaytirish va zararli gaz chiqindilarini nazorat qilish uchun ekologik soliqlarni joriy qiladi. Misol uchun, yoqilg'i narxi qimmatlashsa, avtomobilidan foydalanish kamayadi yoki energiya narxining ortishi natijasida ishlab chiqaruvchi korxonalar energiya tejankor texnologiyalardan foydalanadi. Energiya soliqlarini joriy qilishning asosiy maqsadi CO<sub>2</sub> chiqindilarini kamaytirish, atrof-muhitni himoya qilish va tiklanuvchi energiyadan foydalanishga o'tishni ta'minlashdir.


Transport soliqlari asosan transport vositalari bilan bog'liq soliqlarni o'z ichiga olib, havoning ifloslanishi, tirbandlikning ortishi va yoqilg'i sarfining ko'payishi kabi muammolarning oldini oladi. Bundan ko'zlangan asosiy

1 Muallif ishlanmasi

maqsad mamlakatda jamoat transportidan foydalanishni rivojlantirish, elektromobillardan foydalanishni oshirish hamda atmosfera ifloslanishini kamaytirishga erishishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki tashkilot tabiatga zarar yetkazsa, qo'shimcha soliqqa yoki jarimaga tortish orqali chiqindilarni kamaytirishga, sof ekologik mahsulotlar ishlab chiqarishga, ekologik texnologiyalarni joriy qilishga va ishlab chiqarishni ekologik xavfsiz qilishga undaladi. Ushbu soliqning joriy qilishning asosiy maqsadi mamlakatda ekologik zararlarni kamaytirish, budgetga qo'shimcha mablag' olib kelish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyatni ekologik mas'uliyatli bo'lishga undashdan iboratdir.

Energiya, transport va ifloslanish soliqlarini joriy qilish orqali davlat atrof-muhitni muhofaza qiladi, zararli chiqindilarni kamaytiradi hamda mamlakatda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi (2-rasm).



2-rasm. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishda ekologik barqarorlikni ta'minlashda fiskal tartibga solish modeli<sup>2</sup>

Ushbu model O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishda fiskal mexanizmlarning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib beradi. O'zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanish, ekologik soliqlar va davlat ekologik fondlari orqali atrof-muhitni muhofaza qilish tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Bunda mamlakatda yer qariidan foydalanish uchun soliqlar, suv resurslaridan foydalanish uchun to'lovlar, yer va transport soliqlari, ekologik yig'imlar kabi moliyaviy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu yig'ilgan mablag'lar mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik muammolarni kamaytirish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Orolbo'yi hududidagi ekologik muammolar, havoning ifloslanishi, suv tanqisligi va sanoat chiqindilari kabi masalalar mamlakatda yuqorida sanab o'tilgan ekologik fondlar va davlat dasturlarini kuchaytirishni talab etib kelmoqda. Shu sababli mamlakatda joriy qilinadigan ekologik fondlar va yig'imlar hamda rent to'lovlaridan tushadigan mablag'larni hukumat:

- “yashil” texnologiyalarni joriy etish;
- qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish;
- suv va tabiiy resurslarni tejavchi texnologiyalarni qo'llash;
- “yashil” iqtisodiyotga yo'naltirilgan innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun samarali yo'naltirishi muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishda soliq siyosatining ahamiyati muhim masalalardan biri hisoblanadi. Masalan, eksport qilinadigan sement, po'lat, o'g'it kabi mahsulotlarga qo'shimcha karbon to'lovlari qo'llanishi mumkin. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarni karbon chiqindilarini kamaytirishga majbur qiladi. Kelajakda energiya iste'moli yuqori bo'lgan data-markazlar uchun ekologik soliqlar yoki standartlar joriy qilinishi mumkin. Korxonalarining real emissiyasiga qarab o'zgaruvchi soliq tizimi joriy etilishi mumkin. Bu “ko'proq ifloslantiruvchi — ko'proq to'laydi” tamoyilini kuchaytiradi va mamlakatda yashil o'sishni yanada rivojlantiradi.

2 Muallif ishlanmasi



O'zbekistonda yashil soliqlar hali boshlang'ich bosqichda, lekin energetika islohoti, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari va xalqaro majburiyatlar ushbu tizimni tez rivojlantirish uchun asos yaratib beradi. Yashil iqtisodiyotga o'tishda soliq tizimining bog'liqligida O'zbekiston uchun eng muhim yo'nalishlar:

- karbon hisobini yuritish;
- energiya samaradorligini oshirish;
- yashil investitsiyalarni jalb qilish.

Buning natijasida mamlakatda atrof-muhitga chiqariladigan zararli gazlarni kamaytirish va odamlar hamda korxonalarni ekologik toza qarorlar qabul qilishga undash ehtimoli oshadi. Resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiradi. Davlat budjeti uchun qo'shimcha mablag' keltirib, yangi, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishga turtki beradi hamda yashil iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari paydo bo'lishiga yordam beradi. Ushbu jarayon natijasida havo va suv ifloslanishi kamayib, odamlar salomatligi yaxshilanadi va ekologik standartlarga moslashgan iqtisodiyot xalqaro bozorda ustunlikka ega bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi barcha tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, yashil soliqqa tortish tizimi zamonaviy ekologik-iqtisodiy siyosatning muhim instrumenti hisoblanadi. U "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyiliga asoslanib, atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni iqtisodiy xarajatlarga aylantiradi va shu orqali bozor mexanizmlari orqali ekologik muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, yashil soliqlar karbon emissiyalarini kamaytiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, davlat budjeti uchun barqaror daromad manbai yaratadi.

Biroq, ularning samaradorligi to'g'ri dizayn, ijtimoiy adolat va institutsional salohiyatga bevosita bog'liq. Aks holda, jamoatchilik qarshiligi, iqtisodiy tengsizlik va raqobatbardoshlikning pasayishi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil soliqlar bosqichma-bosqich joriy etilganda va daromadlar qayta taqsimlanganda, ular iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. O'zbekiston sharoitida esa bu tizim hali rivojlanish bosqichida bo'lib, katta transformatsion imkoniyatlarga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-martdagi "Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi 117-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-6832897>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 514-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-6622631>
3. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (2020), Atrof-muhitga oid soliq daromadlari, <https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=ERTR>
4. Oates, W. E. (1995). Green taxes: Can we protect the environment and improve the tax system at the same time? *Southern Economic Journal*, 61(4), 915.
5. Eurostat (2019). [https://appsso.eurostat.ec.europa.eu/nui/submitViewTableAction.do\(accessedOctober2,2019\)](https://appsso.eurostat.ec.europa.eu/nui/submitViewTableAction.do(accessedOctober2,2019))
6. <https://www.oecd.org/en/data/indicators/environmental-tax.html#:~:text=Definition,GDP%20and%20of%20tax%20revenue>.
7. [EU Green Taxation Statistics, Yevrop ittifoqi yashil soliq statistic manbaalari, https://taxation-customs.ec.europa.eu/taxation/other-taxes/green-taxation\\_en](https://taxation-customs.ec.europa.eu/taxation/other-taxes/green-taxation_en)
8. Álvarez, X. C., Gago, A., & Labandeira, X. (1998). Green tax reform: Facts and experiences. *Australian Tax Forum*, 14(3), 361–379
9. Hussain Z. et al. Green growth, green technology, and environmental health: evidence from high-GDP countries // *Frontiers in Public Health*. – 2022. – T.9.–C.816697. <https://www.frontiersin.org/journals/publichealth/articles/10.3389/fpubh.2021.816697/full>
10. Umit, R., & Schaffer, L. M. (2020). Attitudes towards carbon taxes across Europe: The role of perceived uncertainty and self-interest. *Energy Policy*, 140, 111385.
11. Moliyaviy barqarorlikni taminlashda hududlarning soliq potensialini o'rni. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" jurnali, 2024 yil,(104-111- betlar)
12. Baxtiyorov U. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida hududlar soliq salohiyatini va ularni oshirish masalalari // *Green Economy and Development*. – T. 3. – №. 5. – C. 665852.
13. Rodríguez M., Robaina M., Teotónio C. Sectoral effects of a green tax reform in Portugal // *Renewable and Sustainable Energy Reviews*. – 2019. – T. 104. –C.408-418. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1364032119300267>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**



# «HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Дониерова Фотимабону Алишер кизи

Ташкентский государственный экономический университет (PhD)

**Аннотация.** В статье исследуется концепция «HR Business Partner» (HRBP) как инструмента стратегического управления персоналом в условиях трансформации экономики Узбекистана. На основе модели Дэйва Ульриха и международного опыта (Казахстан, ОАЭ и Южная Корея) разработана компетентностная модель HRBP, адаптированная к условиям отечественного рынка труда. Выявлены ключевые барьеры внедрения HRBP и сформулированы практические рекомендации для государственных органов, образовательных учреждений и бизнес-сообщества. Показано, что переход к модели бизнес-партнёрства способствует повышению организационной эффективности, снижению текучести кадров и укреплению конкурентоспособности предприятий.

**Ключевые слова:** «HR Business Partner», стратегическое управление персоналом, человеческий капитал, цифровизация HR, корпоративная культура, бизнес-интеграция, организационная эффективность, Узбекистан.

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiya sharoitida HR Business Partner (HRBP) konsepsiyasi strategik kadrlar boshqaruvining samarali vositasi sifatida tadqiq etiladi. Deyv Ulrix modeliga asoslangan zamonaviy yondashuvlar hamda Qozog'iston, BAA va Janubiy Koreya tajribalari tahlil qilinadi. Mahalliy mehnat bozori sharoitlariga moslashtirilgan HRBP kompetensiyalar modeli ishlab chiqilgan. Empirik ma'lumotlar va milliy ilmiy tadqiqotlar asosida HRBP modelini joriy etishdagi asosiy to'siqlar aniqlanib, davlat organlari, ta'lim muassasalari va biznes hamjamiyati uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari HRBP modelini qo'llash tashkilotlarning samaradorligini oshirish, kadrlar almashinuvini kamaytirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** HR Business Partner, strategik kadrlar boshqaruvi, inson kapitali, HR raqamlashtirish, korporativ madaniyat, biznes integratsiyasi, tashkiliy samaradorlik, O'zbekiston.

**Abstract.** The article examines the HR Business Partner (HRBP) concept as a strategic human resource management tool in Uzbekistan's transforming economy. Drawing on Dave Ulrich's model and international experience from Kazakhstan, the UAE, and South Korea, the study develops a competency framework for HRBP adapted to the local labor market. Based on empirical evidence and national research findings, key barriers to HRBP implementation are identified, and practical recommendations are proposed for government institutions, educational organizations, and the business community. The findings demonstrate that adopting the HRBP model contributes to higher organizational effectiveness, lower employee turnover, and stronger enterprise competitiveness.

**Keywords:** HR Business Partner, strategic human resource management, human capital, HR digitalization, corporate culture, business integration, organizational effectiveness, Uzbekistan.

## ВВЕДЕНИЕ

В условиях стремительного научно-технического прогресса и глобальной цифровой трансформации экономики управление человеческими ресурсами становится одним из ключевых факторов, определяющих конкурентоспособность организаций и устойчивость социально-экономического развития. Традиционная административно ориентированная модель кадровой службы, сформировавшаяся в условиях индустриальной экономики, постепенно утрачивает свою эффективность, уступая место стратегически интегрированным подходам к управлению персоналом. Центральным элементом таких подходов выступает модель «HR Business Partner» (HRBP), которая за последние два десятилетия стала одним из общепризнанных стандартов организации HR-функции в ведущих международных компаниях.

Современный рынок труда предъявляет принципиально новые требования к кадровой политике организаций. По данным World Economic Forum, к 2025 году более 85 миллионов рабочих мест в мире будут трансформированы под воздействием автоматизации и искусственного интеллекта, тогда как спрос на специалистов по управлению изменениями, аналитиков данных и стратегических HR-партнёров



+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)